



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 2285,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 121,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 845,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2285,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (37,7 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globalashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (121,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar moliyaviy xizmatlar (119,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (113,1 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Savdo xizmatlari hajmi - 862,3 mlrd.so'm, transport xizmatlari – 446,8 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 212,9 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 175,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

2018 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 845,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28